

# SHARQ MUTAFAKIRLARINING TA'LIM-TARBIYA BORASIDAGI QARASHLARI

**Alibekov Davron,**

JDPI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari, uning barkamol avlodni shakllantirishga ta'siri o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Liberallashtirish, jamiyat, demokratik, yangilash, modernizatsiya, fan, ma'daniyat, adabiyot, san'at, axloq, falsafa.

O'zbekiston istiqloli tufayli yoshlarni milliy ruhda imon-e'tiqodli, axloqli-odobli qilib tarbiyalash masalasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Chunki, ma'naviy kamol topgan insonlarga barkamol jamiyat qurishlari mumkin. Zero, xalqimizning qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan odob-axloq, imon, e'tiqod kabi insoniy fazilatlari ma'naviyatimizning asosidir.

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda.

O'zbek xalqi jahondagi boshqa xalqlar kabi moddiy boyliklarga emas, ma'naviy boyliklarning ham asoschisi hisoblanadi. U o'zining peshona teri, tafakkur quvvati, qobiliyat va iste'dodi bilan asrlar osha fan va ma'daniyatni, adabiyot va san'atni, axloq va falsafani vujudga keltirdi. Tarixning haqiqiy ijodkori sifatida jamiyatning madaniy-ma'rifiy taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Kishilik jamiyati yuzaga kelibdiki, insonlar orasidaga ijobiy va salbiy munosabatlar barcha kishilarning diqqat markazida muhim masalalardan bo'lib kelgan. Shuning uchun bu masalalar qadim zamonlardan boshlab xalq og'zaki ijodi namunalarida, doston, qo'shiq va ertaklarda, donishmandlarning fikr va qarashlari

sifatida o'ziga xos ravishda munosabat bildirish va tahlil qilish ob'ekti bo'lib kelgan.

Sharqda qadimgi Xitoy ilmiy qarashlarida Konfutsiy ta'limoti, Hindistonda Buddha, islom olamining muqaddas qur'on va hadislarida insonlar orasida yaxshi insoniy munosabatlarni qaror toptirish lozim ekanligi aytib o'tilgan. Deyarli Konfutsiy ta'limotlarida bir g'oya, qarash shakllanganligini kuzatish mumkin: "O'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ravo ko'rma". Konfutsiy merosida asosan odamlar orasidagi munosabat, insonparvarlik, do'stlik, insonni sevish jihatlariga keng o'rin berilgan: "odamlarni sevish va iliq munosabatda bo'lish deganda o'zini inkor etish emas, balki boshqa odamlarni ham bir xil ko'rish kerak" ekanligi talqin etilgan.

Abu Ali Ibn Sino o'z asarlarida bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligi uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvoffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- bolalar bilan yaxshi muomalada bo'lish;
- jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimlarni o'zlashtirilishiga e'tibor qaratish;
- o'qitishda turli metodlardan foydalanish;
- o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;
- o'tilayotgan mavzuga qiziqтира olishi;
- berilayotgan bilimlarni tushinarli qilib etkazish.

Abu Rayhon Beruniy esa insonning tashqi qiyofasi, uning axloqiy qiyofasi bilan uzviy bog'liqligini, kishidagi olijanoblik va orastalik insonlar bilan muomalasida muhim o'zak ekanligini asoslaydi.

Yusuf Xos Hojib insonlar bilan do'st bo'lish uchun asosiy kalit "bu tildir, til tufayli kishi o'z ilmi, aqliga jilo beradi. So'zni o'ylab so'zlash, uning ulug' bo'lishiga olib keladi, yoki o'ylanmay so'zlansa, uning qadrini tushuradi" kabi fikrlari orqali insoniy munosabatlarda muomalaga yuqori etibor berish kerakligini uqtiradi.

Xoji Axmad Yassaviy hikmatlarida esa har bir insonning orzusi insonlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish, do'st ortirish, sevish va sevilish ekanligi ko'rsatib berilgan.

Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida axloq odobga loyiq inson ikki fazilatiga ega bo'lmog'i lozimligi va bu fazilatlar tarkibida muomila odobi, insonlarning o'zaro bir-biri bilan xush muloqotligi, do'stligi kabilarni kiritadi. Mutafakkirning fikricha, insonga uni go'zal amallar qilishi uchun yo'naltiriladigan odat mahsuli bo'lishiga yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda me'yor qay darajada saqlanganligi bilan belgilanadi. Odobni esa u badavlatning davlatini bezaydigan va kambag'alning kambag'alligini o'g'iraydigan axloqiy xodisa sifatida tariflaydi.

Abu Nasr Farobiyning qarashicha yaxshi nazariyachi bo'lishi uchun quyidagi uchta shartga amal qilishi kerak:

- fan tamoyillarini yaxshi bilishi;
- tamoyillar asosida mulohaza yuritish qoidalarini bilishi;
- fikrlarni tahlil qila olishi.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida: "Shundoq kishini do'st tutiningki, senga uning suhbatidan rohat yetsin. Shunda uni qabul qil, chunki oshiqlik boshqa do'stlik boshqadir",-deyilgan bo'lsa, "Xotamnoma" asarida esa saxiylik, to'g'rilik, rostgo'ylik, sevgi va sadoqat, odamlar o'rtasidagi do'stlik va muruvvat, tinchlik va farovonlik kabi ezgu g'oyalar tarannum etilgan.

Alisher Navoiyning "Mahbub-u-qulub" asarida kishi xulq atvorida namoyon bo'ladigan odob va tavoze do'stlik paydo bo'lishiga eng asosiy shart sifatida qaraydi: "tavoze-kishiga xulqning muhabbatini jalb qiladi, odamlarni u bilan do'stlashtiradi. Tavoze-do'stlik gulshanida toza gullar ochadi va gulshanda oshnolik va ulfatchilik bazmida xilma-xil gullar sochadi".

Sharq mutafakkirlari asarlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning boy va sermazmun meroslari o'ziga xos ensiklopediya hisoblanadi. Bu merosni biz o'qib, o'rganib shu kunlarda ham uni hayotga tadbiiq etish kerakligini tan olamiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ulug' bobolarimiz yoshlar tarbiyasiga jiddiy yondashib, ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga katta e'tibor berganlar. Ayniqsa xalqimiz farzand tarbiyasi muammosiga oqilona yondashib, insoniy fazilatlarni shakllantirishni, odob-ahloq narmalarini tarkib toptirishi uchun astoydil mehnat qilganlar. Shuning uchun ham hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida sharq mutaffakirlarining asarlari va qarashlaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. I.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", Toshkent 1994 yil
2. O.Hasanboeva, J.Hasanboev, H.Hamidov "Pedagogika tarixi", Toshkent 1997 yil
3. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar", Toshkent 2000 yil